

Karimova Gulmira Burxonovna

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 66-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oiladagi tarbiya, ota-onaning farzandlarga ko'rsatadigan ta'siri, ta'lim-tarbiya tizimidagi hamkorlik, zo'ravonlik, uning salbiy oqibatlari, ota-onalar va maktab uchun tavsiyalar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik, zo'ravonlik, zoravonlik turlari, fiziologik, psixologik, ijtimoiy yondoshuv, inqirozlar, patologik o'zgarishlar, referent guruhlar, norasmiy va kriminal guruhlar.

Bolalarning o'zi himoyalangan, zaif ijtimoiy qatlam bo'lishlariga qaramay, ko'p hollarda tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar hududida qolib ketadilar, jismoniy, emotsional va jinsiy zo'rlanish qurboniga aylanadilar. BMTning bergan ma'lumotlariga ko'ra har yilda 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning 2 mln.gacha yaqini ota onalar zo'ravonligidan qiynaladilar. Ularning har o'ntadan biri hayotdan ko'z yumadi, ikki mingtasi esa hayotni o'z joniga qasd qilish bilan yakunlaydi.

Zo'ravonlik bir necha ko'rsatkichlar bo'yicha klassifikatsiyalanadi:

- ochiq va yopiq (kimdir oshkor qiladi, kimdir yashiradi);
- hozirda ham davom etayotgan yoki o'tmishda sodir bo'lgan;
- birlik yoki ko'plikda, uzoq yillar davom etuvchi;
- sodir etilayotgan joy va muhitga ko'ra zo'ravonlik: uyda qarindoshlar tarafidan, maktabda pedagog yoki bolalar tomonidan, ko'chada bolalar yoki notanish kattalar tarafidan bo'lishi mumkin.

Asanova ishlarida taklif etilgan quyidagi zo'rlik klassifikatsiyasi keng tarqalgan: Jismoniy zo'ravonlik 18 yoshgacha bshlgan bolalarga nisbatan ko'rsatilgan tasodifiy bo'lmagan jarohatning har qaysisi. Jismoniy zo'ravonlik yuzga urish, itarish, bo'g'ish, yumdalash, kamar yoki arqon bilan kaltaklash, og'ir predmetlar va pichoqlar bilan jarohatlar yetkazish shaklida namoyon bo'ladi.

Jismoniy zo'ravonlik o'z ichiga bolalarni narkotik, alkogol moddalariga jalb qilishni, zaharlovchi yoki hushsizlantiruvchi tibbiy preparatlar (masalan, vrach tomonidan yozib berilmagan uyqu chaqiruvchilarni, shuningdek cho'ktirishga urinishlarni ham qamrab oladi. Jinsiy zo'ravonlik bolalar (qiz yoki o'g'illarni) kattalar yoki boshqa bolalar tomonidan o'zining jinsiy ehtiyojlarini qondirish, manfaat olish maqsadida ulardan foydalanishidir. Jinsiy zo'ravonlik o'z ichiga har qanday jinsiy aloqani, jinsiy organlarning tana kontaktini, bolalarni fohishabozlikka, pornobiznesga jalb qilishni, bolaning oldida jinsiy organlarni yalang'och holda ko'rsatish va unga sezdirmasdan yechinayotganida kuzatish kabi hollarni qamrab oladi. Bolaning zarurat va qiziqishlariga e'tiborsizlik ota onalar yoki ayrim sabablarga ko'ra ularning o'rni bosuvchi shaxslar tomonidan bolaning ovqatga, qiyinishga, uy joyga, ta'lim olishga, tibbiy yordamga bo'lgan majburiy ta'minlanishi kerak bo'lgan zarurat va ehtiyojlarini ta'minlamaslik. Bolani baxtsiz hodisalarga olib keluvchi qarovsiz qoldirishlar yuqoridagilarga misol bo'la oladi.

Psixologik zo'ravonlik doimiy yoki vaqti vaqti bilan bolani haqoratlash, o'qituvchi, tarbiyachilar, ota-onalar tarafidan ko'rsatiladigan qo'rqituvlar; uning insoniylik g'ururini kamsitish, ularni u qilmagan ishda ayblash, bolaga muhabbatning yo'qligini, unga adovatni namoyish etish. Shuningdek, bu zo'ravonlik turiga doimiy yolg'on va bolaga qo'yilayotgan talablar uning yoshiga mos emasligi ham kiradi.

Emotsional zo'ravonlik. Ayrim tadqiqotchilar har qanday zo'ravonlik asosida emotsional zo'ravonlik, xo'rlanganlik yotadi degan fikrdalar. Odatda jabrlanuvchi bola bir vaqtning o'zida zo'ravonlikning bir qancha turini boshdan o'tkazadi. Masalan, zo'ravonlik qurboni bo'lgan kattalar va bolalar ko'pincha jismoniy (kaltaklash) va emotsional (o'ldirish yoki mayib qilish qo'rqituvlari) zo'rlashni boshdan kechiradilar. Bolalar ustidan zo'ravonlik va e'tiborsizliklar bo'lishiga ijtimoiy, hamda madaniy sharoitlar ham olib keladi: jamiyat ongida aniq jismoniy jazo bahosini yo'qligi, OAVda zo'ravonlikni namoyish etilishi. Tadqiqotlar ota onalarda norozilikni, asabiylashishni va bulardan keyin zo'rlashni keltirib chiqaruvchi bolalarda mavjud bir qator xususiyatlarni aniqladilar.

Zo'rlik qurboni bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan bolalar quyidagi xususiyatlarga ega:

- istalmagan bolalar, shuningdek, ota onasi undan oldingi bolani yo'qotgandan keyin tug'ilgan bolalar;

- boshqalardan tashqi qiyofasi bilan ajralib turuvchi yoki ota-onalariga ma'qul bo'lmagan xususiyatli bolalar (masalan, bolaning boshqa jinsda ekanligi);

Insonni biologik, fiziologik psixologik o'sishining eng murakkab bosqichlaridan biri o'smirlik yosh davridir. Ushbu yosh davri eng murakkab o'zgarishlar, qayta qurishlar davri. Shu bilan birga og'ir inqirozlar, salbiy xolatlar, kechinmalar davri hamdir. Bolalarning balog'at yoshi biologik jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega. Bu davr 11- yoshdan 14,15 yoshgacha davom etadi. Ana shu yillar davomida o'g'il- qizlar jismoniy jihatdan tez yetiladi. Butun a'zolarida keskin fiziologik o'zgarishlar sodir. Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази 20 bo'ladi. Unda o'pka, yurak, jigar, taloq, buyrak jismlari kattalashadi. Bundan tashqari gavda tuzilishlari ham o'zgaradi. Qo'l – ayoq o'sib, xatto ota – onaning ko'ziga beso'naqay ko'rinadi. Lekin o'smirda qon tomirlari kengayishi boshqa a'zolar o'sishidan orqada qoladi, natijada qon tomirlarda qon bosimi ortadi. Bu esa unda noxushlik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Ana shunga o'xshash o'zgarishlar ko'pincha o'smir ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. U tajangroq, ba'zida xuda behudaga injiqlik qiladigan, serzarda, gap ko'tarmas bo'lib qoladi. Shunday paytlarda ayrim ota – onalar boladagi o'zgarishini kuzatib, uning yurish turishiga razm solib, so'ng to'g'ri muomala qilish o'rniga gohida “ey muncha qo'pol beo'xshov bo'lib ketyapsan, xech narsaga qovushmaysan” deb uni ranjitib qo'yadilar. Ma'lumki affektiv qo'zg'oluvchanlik ko'p jihatdan o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Bu xolat me'yorda ham kuzatiladi. Uning vujudga kelishi bu yosh fazasining vegetativ – endokrin jixatdan qayta qurilishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu yosh davr xam biologik ham psixologik tomondan o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bu o'smir yosh davrining fenomini hamdir. Biologik o'zgarishlar endokrin sistemasining qayta qurilishi bo'lsa, psixologik o'zgarishlar portlash va agrasessiyaga moyil bo'ladigan affektiv qo'zg'oluvchanlikdir. Bu xolat ko'pincha

ijtimoiy adabtatsiyaning buzilishini, jumladan qonunbuzarlikni sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ammo psixik sog'lom, atrof – muhitning qulay sharoitlarida tarbiyalanayotgan o'smirlarda affektiv qo'zg'oluvchanlik adabtatsiyaning buzilishiga olib kelmaydi. Statistikaning ko'rsatishicha xar bir o'ninchi jinoyat voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinar ekan. Bu faktning ma'nosi faqat qonunbuzarlar tomonidan yetkazilgan zarar bilan aniqlanmaydi albattda. O'smir shaxsi xarakteridagi og'ishlarni shakllanishi ularning tiplarini aniqlash tibbiy psixologik va tibbiyot pedagogik ishlarni aktiv olib borish zarurdir. Bizning asosiy maqsadimiz aziz o'quvchilarga tarbiyasi “qiyin” o'smirlar xarakteridagi xarakter aktsentuattsiyasining va uning tiplari o'smirlik davridagi deviant xulq – atvor va uning klassifikatsiyasi tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar yuritamiz.

Xulqi og'ishganlikni analiz qilishda biz avvalo mediko – psixatrik tomoniga alohida e'tibor berishimiz kerak bo'ladi. Chunki bu bolaning xarakter xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi. Avvalo psixoteriya klinik fan bo'lib, ruhiy kasalliklar sababi kechishi, davolanishni o'rgatadi. Biz o'smirlarni mediko – psixatrik ko'rinishini aytganimizda avvalo psixopatik xolatni aytib o'tishimiz to'g'ri keladi. Psixopatik – bu telbalik, telbanamo harakatlardir ya'ni shizofreniya. Biz yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda o'smirlarni rasman psixopatlar deb ham ayta olmaymiz. Chunki o'smirlar ham shizofreniya darajasiga bormaydi. Psixopatiyaning yengil ko'rinishlari faqat bolaning rivojlanishi bosqichidagina ayrim hollarda ko'zga tashlanadi. Bolalik, o'smirlik yoshidagi buzilishlar va u bilan o'xshash shaxs buzilishlarini qanday farqlash mumkin? – degan savol tug'iladi.

Shizoid buzilishlar – bolalik va o'smirlik yoshidagi shizoid o'zgarishlar diagnozi quyidagi sharoitlarda qo'yiladi.

- A) patsientni o'z tengqurlari ichida yaqin do'sti bo'lmasa
- B) umuman do'st orttirishga qiziqmasa.
- V) o'z tengqurlari bilan muloqotdan qoniqmasa
- G) oila a'zolari, boshqa kishilardan, mashg'ulotdan qochsa.
- D) guruhiy faollikka (hamroxlikdagi o'yinlar sport jamoasida ishtirok etishi)

qiziqishning yo'qligi.

Ta'kidlash joizki qayd etilgan xususiyatlar ma'lum muddat saqlanadi yana surunkali shikastlanish bilan bog'liq depressiya oqibati bo'lishi mumkin. Ular yolg'izlikni yoqtiradilar lekin ularni ijtimoiy yolg'izlik azoblamaydi, ammo o'z yaqinlariga nisbatan yaqinlik bo'ladi, norasmiy muloqotlarning talab qiluvchi sharoitlar (lager, internat hayoti) va ijtimoiy vaziyatlarning yoqtirmaydilar. Tengqurlari bilan o'zlari bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni, o'z ayblarini ham yuklab qo'yadilar. Jur'atsizliklari bois har – xil bahonalar to'qiydilar. Bu xarakter axloqiy shizoid tipiga mos keladi. Uning ilk ko'rinishlari 2-2,5 yoshlarga to'g'ri keladi, ularning begonalardan qochishga intilishi, o'zgalardan qo'rqishlari va davdirashlari ammo oilaning eng yaqin kishilariga, oila a'zolariga bog'lanib qoladi.

O'smirlik yoshiga kelib bu xolat ularda jinsiy qiziqishlarning sekinlashuviga olib keladi.

A) xafagarchilikka asos bo'lmagan narsalarga xam kulgi bo'ldim deb qarashi, o'z g'ururini o'zgalar oldida toptalishi, o'zini “erga” urilgan deb qarashi va undan uyalishi, o'zgalar tomonidan o'zini xo'rlangandek xis qilishi.

B) xali uni tanqid qilmasliklaridan oldin, yaxshisi ular bilan umunosabat o'rnatmaslik

V) xo'rlanishdan qo'rqishi tufayli hammadan o'zini chetga tortishi G) aslida o'zgalar tomonidan qabul qilinishini o'ylash.

D) o'z xatolaridan qayg'urishi va muvaffaqiyatlarni kamsitish, o'zini o'zi past baholashidan azoblanishi va boshqa begonalar bilan kechadigan har qanday aloqadan qiynaladi atrofdegilar ularni “ortiqcha” deb o'ylaydi va o'smirlik davriga xos bo'lgan giperkompeno'iatsiya reaksiyasi ularda uchraydi.

Ye) ota – ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga ichkilikka berilishini

Yo) oila a'zolari ichida sudlangan odamning uchrashi.

J) tengqurlarining salbiy ishlarga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo'li egrilikka) o'rgatishi va hakoza.

Z) madniy – ma'rifiy ishlab chiqarishi va jamoatchilikni kamchiliklari.

O'smirlik – organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan

xarakterlanib bu davrda tananing intensiv tarzdagi rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak va qon tomir xarakterlarida ham notekislik ro'y beradi va u bolani fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan noma'qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi, bular albatta asab tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bola tezda achchiqlanadigan yosh tormozlanishi yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqmaydigan tushkunlikda ham qolishi mumkin.

Bolalar agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to'playdi:

1. Nosog'lom oila muhiti. Bu kabi oilalarda ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikni mavjud emasligi bolalarda agressiv hulq-atvorni shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo'lishi oilaviy muhitning ta'sir darajasiga bog'liq hisoblanadi.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'pgina hollarda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda, o'zlarini agressiv boshqarishga urinadilar.

3. Ommaviy axborot vositasi. Bugungi kunda bolalarga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir. Bu borada internetning ta'siri kuchayib bormoqda.

Bolalar internet aloqalari orqali o'zlarining xususiyatlariga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar bilan ham tanishmoqdalar. Shu o'rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari fil'mlar, ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarni tarkib topishga ta'sir qilmoqda. Psixologik kuzatuvlarga ko'ra, oiladagi iqlim, ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabat, ota-ona bilan bola o'rtasidagi munosabat, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillari, aka-ukalari bilan yaqinlik darajasi, farzandi tomonidan qilingan noto'g'ri, yanglish xatti-harakatlarga nisbatan ota-onaning ta'sirlanishi – oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarini belgilab beruvchi omillar bo'lib hisoblanmoqda.

Xulosa o'rnida, psixologik zo'ravonlikka oilada tez-tez yuz beradigan

nizolarni va ota-onalarning bolaga nisbatan oldindan aytib bo'lmaydigan munosabatlarini kiritish mumkin. Qalbdagi og'riqlar tufayli bolaning intellektual rivojlanishi tormozlanadi, bilish jarayonlarining rivojlanishi va adaptasion qobiliyatlar havf ostida qoladi. U tez hafa bo'luvchan bo'lib qoladi, o'z o'zini hurmat qilish qobiliyati pasayadi. Bola ijtimoiy himoyasiz rivojlanadi, nizoli vaziyatlarga oson tushib qoladi va tengdoshlaridan inkor qilinish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G'. Intellekt psixologiyasi. T., 1996.
2. G'oziyev E.G'. O'quvchilariing o'quv faoliyatini boshqarish. Toshkent, 2002.
3. Алиев Х. Защита от стресса. Как сохранить и реализовать себя в современных условиях. — М., 1996.
4. Бадхен А.А. (ред.). Методическое пособие по работе с посттравматическим стрессовым расстройством. Михайлова Т.И., Певзнер М.М. (сост.). СПб., ин-т ГАРМОНИЯ, 2001